



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK
VAZIRLIGI

100031, Toshkent shahri Mirobod ko‘chasi 15-uy. Telefon: (+998 71) 239-41-21

№ 01/00-01/15-1792
28 - Fevral 2024 y.

O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasiga

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”ning 9-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori loyihasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib, jamoatchilik muhokamasidan hamda Adliya vazirligidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Shu munosabat bilan, loyiha Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga muvofiq kiritilmoqda.

Ilova: ___ varaq.

Vazir



Musayev B. A.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori
loyihasiga

TUSHUNTIRISH XATI

I. Qaror loyihasini ishlab chiqish uchun asos

Qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-oktabrdagi 02/1-2298-sonli topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqildi.

II. Loyihani ishlab chiquvchi.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi.

III. Qaror loyihasini qabul qilish zarurati

Autstaffing xizmatlari turlari O‘zbekiston norasmiy iqtisodiyotda norasmiy bandlik turi sifatida keng foydalaniladi.

Bu faoliyat va xizmat turini legallashtirish rasmiy bandlik darajasini oshirish, mehnatkashlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ishsizlikni kamaytirish, bu sohada bandlarning pensiya bo‘yicha kelajagini kafolatlash chorasi sifatida xizmat qiladi.

Kompaniyalar biznes jarayonlarini soddalashtirish va tartibga solish, shuningdek, xodimlar bilan moslashuvchan munosabatlarni o‘rnatish uchun autstaffing xizmatidan foydalanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida bunday xizmat bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlar mavjud, lekin ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullanish tartibi qonunchilik bilan tartibga solinmaganligi sababli keng rivojlanmagan va ayrim xo‘jalik va mehnat nizolar vujudga kelmoqda.

Ushbu autstaffing xizmatini ko‘rsatishni tartibga solish, norasmiy bandlikni

kamaytirish hamda aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida ushbu hujjat qabul qilinishiga zaruriyat tug'ildi.

IV. Qaror loyihasining tuzilishi va mazmuni

Tuzilishi jihatdan loyiha Vazirlar Mahkamasining qarori 5 ta band va 1 ta ilovadan iborat. Ilovaning o'z navbatida o'z mazmunidan kelib chiqqan holda tegishli ilova bilan to'ldirilgan.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi hududida autstaffing xizmatlarini qaysi subyektlar amalga oshira olishlari, autsaffing xizmatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan sohalar belgilab berilgan.

Ilova "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom" bo'lib, unda mazkur qarordagi asosiy atamalarga tushuntirish berilgan. Jumladan, "autstaffing", "autstafing xizmati", "autstaffer", "qabul qiluvchi tashkilot (qabul qiluvchi tomon)", "autstaffing shartnomasi", "yuborilgan xodim" va boshqalar. Shuningdek, birinchi ilovada autstaffing tartibida yuborilgan xodimlar tomonidan bajariladigan ishlarning turlari va muddatlari, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish va olish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi, autsaffing shartnomasi hamda autstaffing shartnomasi bo'yicha autstaffer tomonidan yuborilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

V. Ishlab chiqilayotgan qaror loyihasi bo'yicha xorijiy tajriba

Qaror loyihasini ishlab chiqishda xalqaro tajriba chuqur o'rganildi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, AQSH va Kanada kabi mamlakatlarda, shuningdek, ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida autstaffing taxminan 1970-yillardan boshlab mavjud bo'lib, shu vaqt mobaynida kadrlar bilan ishlashning bu texnologiyasi nafaqat takomillashibgina qolmay, balki o'z samaradorligini ham isbotladi.

Statistikaga ma'lumotlarga ko'ra, autstaffing xizmat bozorida pul aylanmasining eng katta ko'rsatkichi AQSHda - 80 milliard, Buyuk Britaniyada taxminan 38 milliard, Germaniyada - 7 milliard dollarni tashkil qiladi. Xodimlar

soniga kelsak, ekspertlarning fikricha, AQSH va Yevropa Ittifoqida autstafferlar bilan tuzilgan shartnoma asosida 7-10 million kishi ishlaydi.

AQSHda ushbu xizmatni Professional Employer Organizations (PEO)- “professional ish beruvchi” tomonidan taqdim etiladi.

Professional ish beruvchilar tashkilotlari milliy Assosiasiyasi (National Association of Professional Employer Organizations) ma’lumotlariga ko’ra, Qo’shma Shtatlarning 50 shtatida 700 PEO kompaniyalar mavjud.

Autstaffing xizmati AQSHning Kelly Services, Manpower, Adecco Global, Coleman Services Ins, Ventra Employment, UNISTAFF kabi kompaniyalari tomonidan faol qo’llaniladi.

Autstaffing xizmatidan keng foydalanadigan Yevropa davlatlaridan biri – Germaniyadir. Yevropa Ittifoqi komissiyasi tomonidan 2011-yil 1-maydan ishchilar uchun transchegaraviy harakat erkinligi to’g’risida hujjat qabul qildi. Bunga asosan Sharqiy va Markaziy Yevropaning sakkiz mamlakati (Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya, Estoniya, Latviya, Litva va Vengriya) mutaxassislari Germaniyada cheklovsiz ishlashlari mumkin. 2014-yilda ushbu qoida Bolgariya va Ruminiya rezidentlari uchun kengaytirildi, 2015-yildan boshlab Xorvatiya ham ushbu qoidaga qo’shildi.

Germaniyaga Sharqiy Yevropa davlatlaridan autstaffing xizmatlarini taklif qiluvchi agentliklar birinchi navbatda ma’lum professional guruhlariga ixtisoslashgan bo’lib, tegishli kasbiy malakaga ega bo’lgan mutaxassislargina taklif qilishi mumkin. Mazkur xizmatdan foydalanish orqali xodimning kasallik davrida yoki bola parvarishi ta’tili, shuningdek, asosiy ta’til paytida o’rnini bosish mumkin.

VI. Qaror loyihasini qabul qilishdan kutilayotgan natijalar

Norasmiy bandlikni kamaytiradi hamda aholini ish bilan ta’minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytiradi va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Shuningdek, autstaffing xizmati biznesni optimallashtirish bo’yicha qator imkoniyatlarni kompaniyaga beradi:

budjetni samarali taqsimlash;

xodimlar oldida yuridik javobgarligi bo‘lmaydi;

ishga xodimlarni yollash bilan bog‘liq xarajatlardan, hisob-kitoblar, ish haqi to‘lovidan amalga oshirilmaydi;

xodimlarni ishdan bo‘shatish bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartiradi va chiqarib tashlaydi;

rasmiylashtirmasdan yangi xodimlarni sinovdan o‘tkazadi;

xizmat safarlarini rasmiylashtirish va ijtimoiy imtiyozlar taqdim etish bilan bog‘liq ma‘muriy ishlar hajmini kamaytiradi;

o‘quv xarajatlari va kompensatsiya paketlarini optimallashtiradi.

VII. Moliyaviy xarajatlar

Mazkur qaror loyihasi amalga oshirilishida ish beruvchilarning mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan qo‘shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qilmaydi.

VIII. Qaror loyihasini kelishish

Mazkur loyiha 2022-yilning yanvar oyida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi <https://project.gov.uz/> da ID-28507 raqami bilan dastlabki kelishuvga kiritilgan. Tegishli vazirlik va idoralarning bildirgan e‘tiroz va takliflari asosida ishlab chiqilgan.

Loyiha jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazildi, taklif va e‘tirozlar bo‘lmadi.

Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi munosabati bilan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoxud ularni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish zaruriyati mavjud emas.

Loyihada ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha muqaddam Prezident va (yoki) Hukumatning hujjatlari qabul qilinmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ–5025-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta‘sirini baholashdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 29-bandiga muvofiq, TSTBdan o‘tkazildi, TSTB bo‘yicha

hisobot to'ldirili hamda TSTB bo'yicha hisobot yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi xulosalari olindi.

Adliya vazirligidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Vazir



Musayev B. A.

,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasi bo‘yicha
KELISHMOVCHILIKLAR JADVALI

I.	Amaldagi tahrir	Tahlif etilayotgan tahrir	Ko‘rib chiqilish natijasi
1	<p>O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi (2-versiya bo‘yicha)</p> <p>Qaror loyihasi 2-ilova 3-bandi: Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun akkreditasiya uchun to‘lov kunida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida yig‘im undiriladi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 3-bandiga ko‘ra, “Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun akkreditasiya uchun to‘lov kunida O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida yig‘im undiriladi”, - deb belgilangan.</p> <p>Bunda, akkreditasiya uchun yig‘im miqdori ko‘p belgilanmoqda.</p> <p>Vaholangki, amaldagi qonunchilikka ko‘ra, bu kabi o‘xshash ruxsat berish tartib-taomillarida undiriladigan yig‘im vakolatli organning ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun qilgan xarajatlar doirasida belgilanishi zarur.</p> <p>Biroq, qayd etish lozimki, autstaffing xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun akkreditasiya qilishda vakolatli organ tomonidan bunday miqdordagi xarajatlar talab etilmaydi.</p> <p>Shu bois, akkreditasiya uchun yig‘im miqdorini kamaytirish maqsadga muvofiq.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyiha 2-ilovasi va akkreditasiya qilish chiqarib tashlandi.</p>

2	<p>Qaror loyihasi 2-ilova 7-bandi; Akkreditatsiyadan o'tishga talabgor tashkilot quyidagi talablarga javob berishi kerak: ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunchilik hujjatlarining talablariga qat'iy rioya qilishi; shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi; kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi; sug'urta tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kasbiy javobgarlikni sug'urtalash bo'yicha shartnomaga ega bo'lishi; tashkilot rahbarining shaxsiga qarshi jinoyatlar yoki iqtisodiy sohadagi jinoyatlar uchun ilgari sudlanmaganlik.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 7-bandiga ko'ra: "Akkreditatsiyadan o'tishga talabgor tashkilot quyidagi talablarga javob berishi kerak: ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunchilik hujjatlarining talablariga qat'iy rioya qilishi; shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi; kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi; ...; tashkilot rahbarining shaxsiga qarshi jinoyatlar yoki iqtisodiy sohadagi jinoyatlar uchun ilgari sudlanmaganlik". Ko'rinadiki, bunda talabgor uchun bir qancha murakkab va aniq bo'lmagan talablar belgilanmoqda. Xususan, qonunchilik hujjatlarining talablariga qat'iy rioya qilish talabi alohida talab va shart sifatida belgilanishi shart bo'lmagan, barcha birdek amal qilishi zarur bo'lgan holat hisoblanadi. Yoki, shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi talabi esa, ortiqcha hamda faoliyatga to'siq bo'luvchi, asossiz talabdir. Vaholangki, ushbu soha uchun 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lish talabi ortiqcha ko'rinadi. Shuningdek, kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lish talabi ham ortiqcha ko'rinadi. Chunki, mazkur faoliyat o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bu kabi ortiqcha shartlar belgilashni talab etmaydi. Bundan tashqari, tashkilot rahbarining shaxsiga qarshi jinoyatlar yoki iqtisodiy sohadagi jinoyatlar uchun ilgari sudlanmaganlik talabi ham mutlaqo ortiqcha ko'rinadi. Vaholangki, Jinoyat kodeksi 45-moddasi 5-qismida ham "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlanmaydi, bundan odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan hollar mustasno" degan norma belgilangan. Bunday talabni belgilash bir jinoyat uchun qayta-qayta javobgarlikni nazarda tutadi. Qolaversa, mazkur sohaga nisbatan bunday talablarning qo'yilishi birinchi navbatda, byurokratik to'siq va korrupsiya holatlariga sharoit yaratib beradigan holat sifatida baholanishi lozim. Umuman olganda, loyihada bu kabi aniq va tugal ro'yxatga ega bo'lmagan, ortiqcha talablarning belgilanishi tadbirkorlik faoliyatiga ortiqcha aralashishga, biznes uchun ma'muriy yukning ortishi va asossiz byurokratik to'siqlarning yuzaga kelishiga, shuningdek, davlat organlari tomonidan o'z idoraviy manfaatlarini ilgari surish holatlariga olib kelishi aniq. Shundan kelib chiqib, yuqorida keltirilgan ortiqcha talab va shartlarni belgilash maqsadga muvofiq emas.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
---	---	--	--

3	<p>Qaror loyihasi 2-ilova 12-bandi: Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonida hududiy mehnat organi ariza beruvchining ushbu Nizomda nazarda tutilgan talab va shartlarga muvofiqligini joyida tekshirishi mumkin.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 12-bandiga ko'ra, "Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish jarayonida hududiy mehnat organi ariza beruvchining ushbu Nizomda nazarda tutilgan talab va shartlarga muvofiqligini joyida tekshirishi mumkin", - deb belgilangan.</p> <p>Ko'rinadiki, bunda talabgorning belgilangan talab va shartlarga muvofiqligini vakolatli organ joyida tekshirishi mumkinligi belgilanmoqda.</p> <p>Biroq, ta'kidlash lozimki, ushbu talab va shartlarga muvofiqligini joyiga chiqib o'rganish zarurati mavjud emas.</p> <p>Chunki, talabgor tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va tegishli davlat organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish va solishtirish orqali ham talabgorning belgilangan talab va shartlarga muvofiqligini tekshirish imkoni mavjud.</p> <p>Vakolatli organning joyiga chiqqan holda o'rganishi amalda korrupsiya va suiiste'mollik holatlariga sharoit yaratib, talabgorlarni korrupsiya munosabatlariga kirishishga majbur qiladi.</p> <p>Shu bois, talabgorning belgilangan talab va shartlarga muvofiqligini vakolatli organ tomonidan joyida tekshirilishini belgilash maqsadga muvofiq emas.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
4	<p>Qaror loyihasi 2-ilova 20-bandi: Vazirlik va uning hududiy organlari (hududiylik jihatidan) tomonidan autstafferlarning qonunchilikda nazarda tutilgan autstaffing shartlariga rioya etishlari yuzasidan nazorat qilinadi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 20-bandiga ko'ra, "Vazirlik va uning hududiy organlari (hududiylik jihatidan) tomonidan autstafferlarning qonunchilikda nazarda tutilgan autstaffing shartlariga rioya etishlari yuzasidan nazorat qilinadi", - deb belgilangan.</p> <p>Biroq, ushbu normani belgilashda amaldagi qonunchilikda tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatida davlat nazoratini amalga oshirishning alohida tartibi belgilanganligi hamda barcha tekshirishlar shu tartibga asosan amalga oshirilishi lozimligini inobatga olish lozim.</p> <p>Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi PF-5490-sonli Farmonining 5-bandiga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi "xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi belgilangan.</p> <p>Ushbularni inobatga olgan holda, yuqoridagi normada tadbirkorlik sub'yektlarida tekshirishlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishini nazarda tutish lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>

5	<p>Qaror loyihasi 2-ilova 21-bandi: Autstafferlar har chorakda vazirlik tomonidan belgilangan shakllarda o'z faoliyati to'g'risida hisobotni hududiy mehnat organiga taqdim etadi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 21-bandiga ko'ra, "Autstafferlar har chorakda vazirlik tomonidan belgilangan shakllarda o'z faoliyati to'g'risida hisobotni hududiy mehnat organiga taqdim etadi", - deb belgilangan. Ko'rinadiki, bunda sohadagi tadbirkorlik sub'yektlari uchun ortiqcha bo'lgan majburiyat belgilanmoqda. Vaholangki, ushbu faoliyat turi bu kabi hisobotlarni talab qilish darajasida ijtimoiy ahamiyat kasb etmaydi. Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan belgilangan tartibda soliq va statistika organlariga hisobotlar topshiriladi hamda hududiy mehnat organlarida ularni elektron axborot almashish orqali olish imkoniyati mavjud. Shu bois, autstafferlar tomonidan har chorakda o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni taqdim etilishini belgilash maqsadga muvofiq emas.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
6	<p>Qaror loyihasi 2-ilova 23-bandi: Akkreditatsiya autstaffer tomonidan belgilangan talablar va shartlarni buzish faktlarini aniqlagan, shuningdek, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmani bajarmagan hollarda to'xtatib qo'yilishi mumkin. Vazirlik akkreditatsiyani to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmay autstafferni yozma ravishda xabardor qiladi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 23-bandiga ko'ra, "Akkreditatsiya autstaffer tomonidan belgilangan talablar va shartlarni buzish faktlarini aniqlagan, shuningdek, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmani bajarmagan hollarda to'xtatib qo'yilishi mumkin. Vazirlik akkreditatsiyani to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmay autstafferni yozma ravishda xabardor qiladi", - deb belgilangan. Ko'rinadiki, akkreditatsiya vazirlik tomonidan to'xtatib turilishi belgilangan. Ya'ni, bunda tadbirkorlik faoliyati vakolatli organ tomonidan to'xtatib turilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlariga nisbatan quyidagi huquqiy ta'sir choralari faqat sud tartibida qo'llaniladi: faoliyatni cheklash, to'xtatib turish va taqiqlash, bundan favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda faoliyatni o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga cheklash, to'xtatib turish hollari mustasno; ...; tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun berilgan lisenziyalarning (ruxsatnomalarning) amal qilishini o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turish yoki ularning amal qilishini tugatish va lisenziyalarni (ruxsatnomalarni) bekor qilish, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan beriladigan lisenziyalar (ruxsatnomalar) mustasno. Ushbulardan ko'rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshiriladigan huquqiy ta'sir choralardan biridir. Shu bois, loyihada amaldagi qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, tadbirkorlik faoliyatini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshirilishini belgilash lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>

7	Qaror loyihasining 2-ilovasi bo'yicha.	Umuman olganda, loyihada nazarda tutilgan autstaffing xizmatlarini akkreditasiyalash masalasi bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda, bunday akkreditasiyalash tartibi faqat Rossiya tajribasida borligi aniqlandi. Ko'rinadiki, bunday tartibni namuna sifatida olishda boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi ham o'rganilishi, akkreditasiyalash tartibining maqsadga muvofiqligi masalasi qayta ko'rib chiqilishi zarur. Zero, mazkur soha ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra akkreditasiyalash tartibini joriy etish talab etilmaydigan, shunchaki ushbu faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlarini qonunchilikda belgilab qo'yish bilan cheklansa bo'ladigan faoliyat turi bo'lishi mumkin. Vaholangki, mamlakatda olib borilayotgan siyosat tadbirkorlik sub'yektlariga imkon qadar erkinlik va yengilliklar berish, biznes yuritishda byurokratik tartib-taomillarni qisqartirishga qaratilgan. Shu sababli, autstaffing xizmatlarini akkreditasiyalashning maqsadga muvofiqligi masalasini qayta ko'rib chiqish lozim.	Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.
O'zbekiston savdo-sanoat palatasi (4-versiya bo'yicha)			

8	<p>Loyiha 2-ilovasi 12-bandi. 12. Vazirlik quyidagi hollarda ariza beruvchini akkreditatsiya qilishni rad etishga haqlidir: ariza beruvchi tomonidan arizada va unga ilova qilingan hujjalarda noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarni taqdim etish; ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi; ariza beruvchining ushbu Nizomda nazarda tutilgan talab va shartlarga mos kelmasligi. Boshqa sabablarga ko'ra, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi tufayli akkreditatsiya qilishdan rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 12-bandiga ko'ra: "Vazirlik quyidagi hollarda ariza beruvchini akkreditatsiya qilishni rad etishga haqlidir: ariza beruvchi tomonidan arizada va unga ilova qilingan hujjalarda noto'g'ri rasmiylashtirilgan hujjatlarni taqdim etish; ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi; ariza beruvchining ushbu Nizomda nazarda tutilgan talab va shartlarga mos kelmasligi. ...". Ko'rinadiki, bunda ariza beruvchini akkreditatsiya qilishni rad etish asoslari belgilanmoqda. Biroq, hech bir asosni mantiqan va huquqiy jihatdan to'g'ri deb bo'lmaydi. Chunki, asoslardan birinchi va ikkinchilarida ariza beruvchi tomonidan arizaga ilova sifatida taqdim etilgan hujjatlarning noto'g'ri rasmiylashtirilganligi yoki ularda ishonchsiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi keltirilmoqda. Ammo, e'tiborga olish lozimki, loyiha 2-ilovasi 7-bandida bunday hujjatlar ariza beruvchi tomonidan ixtiyoriy taqdim etilishi mumkinligi belgilangan. Ya'ni, ixtiyoriy tarzda taqdim etilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning akkreditatsiya qilishni rad etish uchun asos bo'lishi mantiqan noto'g'ri. Bunday holatlarda ariza qayta berilishi va ushbu ma'lumotlar qayta taqdim etilmasligi ham mumkin. Bunda ikkinchi marta akkreditatsiya qilishda mazmunan biror holat o'zgarmagan bo'ladi. Faqatgina ariza beruvchiga ovvoragarchilik tug'dirilib, uning ikkinchi marta qayta murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Yoki, akkreditatsiya qilishni rad etish asoslari yana biri sifatida ariza beruvchining ushbu Nizomda nazarda tutilgan talab va shartlarga mos kelmasligi keltirilgan. Lekin, ushbu Nizomda bunday talab va shartlar keltirilmagan. Bu esa, amaliyotda turli noaniqlik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi aniq. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, akkreditatsiya qilishni rad etish asoslarini qayta ko'rib chiqish lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
---	---	--	--

9	<p>Loyiha 2-ilovasi 18-19-bandlari. 18. Akkreditatsiyani bekor qilish vazirlik tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi: autstafferning akkreditatsiyani bekor qilish to'g'risidagi arizasi; autstaffer tomonidan ushbu Nizomda nazarda tutilgan talablar va shartlarni muntazam ravishda buzish; akkreditatsiya to'g'risidagi qarorning noqonuniyligini aniqlash.</p> <p>19. Akkreditatsiya quyidagi hollarda bekor qilinadi: ushbu Qoidalarning 18-bandida nazarda tutilgan holatda; autstafferning akkreditatsiyani bekor qilish to'g'risidagi arizasi; soxta hujjatlar yordamida akkreditatsiya olish faktini aniqlash. Ushbu bandning to'rtinchi xatboshisida nazarda tutilgan holatda akkreditatsiyani bekor qilish sud qarori bilan, boshqa hollarda - vazirlikning qarori bilan amalga oshiriladi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 18-19-bandlariga ko'ra, autstaffer tomonidan ushbu Nizomda nazarda tutilgan talablar va shartlarni muntazam ravishda buzish, akkreditatsiya to'g'risidagi qarorning noqonuniyligini aniqlash holatlarida akkreditatsiya vazirlik tomonidan bekor qilinishi belgilangan.</p> <p>Biroq, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 42-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan bunday huquqiy ta'sir chorasi faqat sud tartibida qo'llaniladi.</p> <p>Umuman olganda, yuqoridagi masalalar nizoli masala bo'lib, uni vazirlik tomonidan hal etilishi masalaning bir tomonlama ko'rib chiqilishiga, bunda tadbirkorlik subyekting manfaatlari inobatga olinmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois hamda amaldagi qonunchilik talablarini inobatga olgan holda, loyihada akkreditatsiyani vazirlik tomonidan bekor qilish faqatgina tadbirkorlik faoliyatining bu haqdagi arizasi asosida amalga oshirilishi mumkinligini, boshqa holatlarda akkreditatsiyani bekor qilish sud tartibida amalga oshirilishini belgilash lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
10	<p>Loyiha 2-ilovasi 21-bandi. 21. Agar autstaffer akkreditatsiya qilishni rad etish yoki bekor qilish to'g'risidagi qaror bilan rozi bo'lmasa, akkreditatsiya ob'yekti sudga murojaat qilish huquqiga ega.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 21-bandiga ko'ra, "Agar autstaffer akkreditatsiya qilishni rad etish yoki bekor qilish to'g'risidagi qaror bilan rozi bo'lmasa, akkreditatsiya ob'yekti sudga murojaat qilish huquqiga ega", - deb belgilangan.</p> <p>Avvalo, normada keltirilgan "akkreditatsiya ob'yekti sudga murojaat qilish huquqiga ega"ligi tushunarsiz.</p> <p>Shu bois hamda mazkur Xulosa 2-bandida keltirilgan asoslarni inobatga olgan holda, ushbu normani chiqarib tashlash tavsiya etiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
11	<p>Loyiha 2-ilovasi 25-bandi ikkinchi xatboshi. Bunday holda yangi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtiriladi.</p>	<p>Loyiha 2-ilovasi 25-bandiga ko'ra: "Yuridik manzil nomi qayta nomlanganda yoki o'zgariganda, autstaffer akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani qayta rasmiylashtirish uchun vazirlikka yigirma kun ichida ushbu o'zgarishlar to'g'risida yozma ravishda xabar berishga majburdir. Bunday holda yangi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtiriladi".</p> <p>Biroq, ta'kidlash lozimki, yuridik manzil nomi qayta nomlanganda yoki o'zgariganda yangi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma rasmiylashtirilishi shart emas.</p> <p>Ushbu ma'lumotlar o'zgariganda reestrda bu haqda tegishli o'zgartirishlar kiritilishi yetarli. Shu bois, mazkur band ikkinchi xatboshini chiqarib tashlash lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>

12	Loyiha bo'yicha.	5. Umuman olganda, loyihada nazarda tutilgan autstaffing xizmatlarini akkreditatsiyalash masalasi bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilganda, bunday akkreditatsiyalash tartibi faqat Rossiya tajribasida borligi aniqlandi. Ko'rinadiki, bunday tartibni namuna sifatida olishda boshqa rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi ham o'rganilishi, akkreditatsiyalash tartibining maqsadga muvofiqligi masalasi qayta ko'rib chiqilishi zarur. Zero, mazkur soha ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra akkreditatsiyalash tartibini joriy etish talab etilmaydigan, shunchaki ushbu faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlarini qonunchilikda belgilab qo'yish bilan cheklansa bo'ladigan faoliyat turi bo'lishi mumkin. Vaholangki, mamlakatda olib borilayotgan siyosat tadbirkorlik subyektlariga imkon qadar erkinlik va yengilliklar berish, biznes yuritishda byurokratik tartibtaomillarni qisqartirishga qaratilgan. Shu sababli, autstaffing xizmatlarini akkreditatsiyalashning maqsadga muvofiqligi masalasini qayta ko'rib chiqish lozim.	Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (1-versiya bo'yicha)			
13 a) O'zbekiston Respublikasi hududida autstaffing xizmatlari akkreditatsiya asosida amalga oshirishlari mumkin:	Qaror matni 1-bandining "a" kichik bandi quyidagi talqinda bayon qilinishi taklif etiladi: a) O'zbekiston Respublikasi hududida autstaffing xizmatlarini quyidagi subyektlar akkreditatsiya asosida amalga oshirishlari mumkin:	Qabul qilindi. Loyihadan ushbu band chiqarildi.
14 b) autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibida yo'naltirilgan ishchilar oldindan ayon bo'lgan ishlab chiqarish yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini vaqtincha kengaytirish bo'yicha ishlarni bajarish, shu jumladan:	Shuningdek, qaror matnining 1-bandi "b" kichik bandini quyidagicha tahrirlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. b) autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibida yo'naltirilgan ishchilar qabul qiluvchi tashkilotda ishlab chiqarish yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini vaqtincha kengaytirish bo'yicha ishlarni bajaradi, shu jumladan:	Qabul qilindi. Loyihadan ushbu band chiqarildi.
15 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	Autstaffing bilan bog'liq faoliyat shaffoqligini ta'minlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion harakatlarning oldini olish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda autstaffer tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan taqdim etiladigan akkreditatsiyani muddatli asosda berilishini belgilash taklif etiladi.	Qabul qilinmadi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.
16 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	Bundan tashqari, mamlakatdagi mehnat bozoriga salbiy ta'sirlarning oldini olish maqsadida autstaffing bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tomonidan yollanishi mumkin bo'lgan xodimlar sonining eng yuqori chegarasini belgilash maqsadga muvofiq.	Qabul qilinmadi. Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini cheklash mumkinligi sababli xodimlar soni eng yuqori chegarasi belgilanmadi.

17 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunning 8-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Ushbu qonunga asosan "Autstaffing xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qarori loyhasining barcha ilovalarini davlat tiliga tarjima qilish zarur.	Qabul qilindi. Loyiha to'liq o'zbek tilida qaytadan ishlab chiqildi.
18 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	Shu bilan birga, qaror loyhasini yuqoridagi takliflar asosida qayta ishlab, uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga muvofiq manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 yanvardagi PF-5621-son Farmonining 4-bandi talabiga binoan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga kelishish uchun kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.	Qabul qilindi. Tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda loyiha qaytadan ishlab chiqildi.
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (2-versiya bo'yicha)			
19	Qaror loyihasi 2-ilova 7-bandi: Akkreditatsiyadan o'tishga talabgor tashkilot quyidagi talablarga javob berishi kerak: ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunchilik hujjatlarining talablariga qat'iy rioya qilishi; shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi; kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi; sug'urta tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kasbiy javobgarlikni sug'urtalash bo'yicha shartnomaga ega bo'lishi; tashkilot rahbarining shaxsga qarshi jinoyatlar yoki iqtisodiy sohadagi jinoyatlar uchun ilgari sudlanmaganlik.	Qaror loyihada, autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan yuridik shaxslarga ruxsat etilishi, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun akkreditatsiyadan o'tish talablari sifatida yuridik shaxslar shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga hamda kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi lozimligi belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni 16-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar autstaffing xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Shuningdek, ushbu Qonunda yuqoridagi qaror loyihasi (ID-28507) bilan autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun talab etilayotgan normalar belgilanmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun qaror loyihasi (ID-28507) bilan talab etilayotgan normalami O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi PQ-5025-sonli qarori talablariga muvofiq tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazilishi lozimligini ma'lum qilamiz.	Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.
O'zbekiston kasaba uyushmalar federatsiyasi (1-versiya bo'yicha)			

20	<p>1. Belgilansinki: a) O'zbekiston Respublikasi hududida autstaffing xizmatlarini quyidagi sub'yektlar akkreditasiya asosida amalga oshirishlari mumkin: <i>xususiy bandlik agentliklari</i>; O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan kadrlar va rekrutinq agentliklari;</p> <p>.....</p> <p>2. Quyidagilar: <i>Xususiy bandlik agentliklarini akkreditasiyadan o'tkazish va xodimlarni ishga joylashtirish agentliklarini autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun jalb qilish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.</i></p>	<p>Qarorning 1-bandi, a) kichik bandining birinchi defisidagi "xususiy bandlik agentliklari" so'zlarini hamda 2-bandining ikkinchi defisidagi "Xususiy bandlik agentliklarini akkreditasiyadan o'tkazish va" so'zlarini, O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuniga zid bo'lgani uchun, olib tashlash taklif etiladi. Chunki yuqorida ko'rsatilgan Qonunning 10-moddasida xususiy bandlik agentliklarining xizmat turlari qatorida "autstaffing" xizmati ko'zda tutilmagan.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyihadan "Xususiy bandlik agentliklari" jumalari to'liq olib tashlandi.</p>
21	<p>1. Belgilansinki: b) autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibida yo'naltirilgan <i>ishchilar</i> qabul qiluvchi tashkilotda ishlab chiqarish yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini vaqtincha kengaytirish bo'yicha ishlarni bajarish, shu jumladan:</p>	<p>Qarorning 1-bandi, b) kichik bandida "ishchilar" so'zini "xodimlar" so'ziga almashtirish va yuridik xizmatni qo'shish taklif etiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyihadagi "ishchilar" so'zlari "xodimlar" so'ziga almashtirildi.</p>
22	<p>..... <i>(Loyihaning butun matni bo'yicha)</i></p>	<p>"Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasiga asosan xususiy bandlik agentliklari faoliyatiga nomuvofiqligi sababli qaror va uning ilovalaridagi "xususiy bandlik agentligi" so'zlari chiqarib tashlansin.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyihadan "Xususiy bandlik agentliklari" jumalari to'liq olib tashlandi.</p>

23	<p>..... (Loyihaning butun matni bo'yicha)</p>	<p>Loyihada O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganda e'tiborga olinmagan, XMTning tavsiyalariga asoslangan 06.08.2020 y. sanasidagi 173-sonli xatda ko'rsatilgan tavsiyalariga to'liq muvofiqlashtirilsin. Ma'lumot uchun. XMT tavsiyalaridan ko'chirma: "16-modda. Loyihaga ishchi kuchini yollash normasi va munosib mehnat tamoyillariga, jumladan: ish haqi, mehnatni muhofaza qilish, ish vaqti, ta'til huquqi va boshqalarga rioya qilish uchun javobgar bo'lgan yuridik shaxs sifatida autstaffingni tashabbus qilgan ish beruvchi tushunchasini kiritish. Autstaffing xodimlarni "ona" kompaniyasi - ish beruvchining shtatlaridan chiqarish sifatida "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan alohida hollarda qo'llaniladigan mehnat munosabatlarining qo'shimcha shakli deb tan olinadi hamda vaqtinchalik va cheklangan xarakterga ega bo'lganligi sababli ish beruvchi-xodim o'rtasidagi muntazam munosabatlarining o'rnini bosa olmaydi. U ishchilar tashkilotlari bilan kelishilgan holda va ishchilar uchun munosib mehnat sharoitlari va ish haqi ta'minlangan holda qo'llaniladi. Qonunda ayrim tarmoqlarda, ayrim holatlarda (masalan, mehnat nizosi) "ona" kompaniya qabul qiluvchiga o'tkazadigan xodimlar soniga, shuningdek, ma'lum vaqtdan ko'proq vaqt davomida autstaffingdan foydalanishni taqiqlovchi qo'shimcha cheklolvar kiritilishi mumkin. (masalan, "ona" kompaniyasi - ish beruvchi xodimlarining umumiy sonining 10% dan ko'p bo'lmagan). Qonun autstaffing bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarini davlat attestatsiyasidan o'tkazish tartibini tartibga solishi kerak. Davlat qonun hujjatlarining tegishli normalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. XMTning 181-sonli konvensiyasi xususiy bandlik agentliklari faoliyati bo'yicha zarur ko'rsatmalar beradi.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 1-ilovasi 19-bandida autstaffer tomonidan qabul qiluvchi tashkilotga yuborilgan xodimlarning ish haqi va mehnat sharoitlari, xuddi shunday mehnat funksiyalarini bajaradigan va bir xil malakaga ega bo'lgan qabul qiluvchi tashkilot xodimlarining ish haqi va mehnat sharoitlaridan past (yomon) bo'lmazligi kerakligi ko'rsatildi.</p>
24	<p>18. Autstaffing shartnomasi asosida xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish autstaffer va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasidagi autstaffingning majburiyatlarini bajarish javobgarligidan ozod qilmaydi.</p>	<p>18-banddagi "...autstaffing" so'zini "autstaffing" so'zi bilan almashtirish lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. 18-banddagi "...autstaffing" so'zini "autstaffing" so'zi bilan almashtirildi.</p>
25	<p>28. Akkreditatsiya to'g'risidagi Guvohnoma to'xtatilganda yoki bekor qilingan taqdirda, autstaffer uch kun ichida qabul qiluvchi tashkilotga yuborilgan xodimlarni chaqirib olishga va autstaffing shartnomasini bekor qilish choralarini ko'rishga majburdir.</p>	<p>28-banddagi "guvohnoma" so'zi bosh harf bilan, boshqa o'rinlarda esa kichik harf bilan yoziladi. Bir xil yozilishi lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
26	<p>..... (Loyihaning butun matni bo'yicha)</p>	<p>Nizomda xodim va Qabul qiluvchi o'rtasidagi nizolarni hal qilish tartibini, shuningdek, akkreditatsiya guvohnomasini bekor qilish autstaffing shartnomasini bekor qilishga olib kelishini nazarda tutish tavsiya etiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha ilovasi bo'lgan Nizomning 26-bandida autstaffer (ish beruvchi) va xodim o'rtasidagi mehnat nizolari qonunchilikda belgilangan tartibda hal etilishi ko'rsatildi.</p>

27	Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova AUTSTAFFING XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA (namunaviy) 3.2.1. qabul qilinadigan ishchilarning (xodimlarning) soni va talab qilinadigan malakalari ko'rsatilgan holda ishchilar (xodimlar) bilan ta'minlash to'g'risida so'rov shakllantiradi;	Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish shartnomasidan 3.2.1.-bandni chiqarib tashlash lozim, chunki so'rov ushbu shartnoma tuzilishidan oldin shakllantirilgan.	Qabul qilindi. Loyiha 1-ilovasi bo'lgan Nizomning 1-ilovasi "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi namunaviy shakli" chiqarib tashlandi.
28	Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova AUTSTAFFING XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA (namunaviy)	Xodimni Autstaffer va Qabul qiluvchi o'rtasida autstaffing xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga uchinchi shaxs sifatida kiritish kerak.	Qabul qilindi. Loyiha 1-ilovasi bo'lgan Nizomning 1-ilovasi "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi namunaviy shakli" chiqarib tashlandi.
29	Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova AUTSTAFFING XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA (namunaviy)	Mehnat sharoitlarining asosiy ish joyidagidan past bo'lmashligini (yomonroq, og'irroq) ta'minlash, ish beruvchi tomonidan qo'shimcha vaqt va transport uchun xarajatlarni qoplash.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasining 19-bandida autstaffer tomonidan qabul qiluvchi tashkilotga yuborilgan xodimlarning ish haqi va mehnat sharoitlari, xuddi shunday mehnat funksiyalarini bajaradigan va bir xil malakaga ega bo'lgan qabul qiluvchi tashkilot xodimlarining ish haqi va mehnat sharoitlaridan past (yomon) bo'lmashligi kerakligi ko'rsatildi.
30	Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova AUTSTAFFING XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA (namunaviy)	Jamoa shartnomasi bo'yicha barcha kafolatlar va imtiyozlarni saqlash, qabul qiluvchi tashkilot rahbarining roziligidan qat'i nazar, barcha turdagi mehnat va ijtimoiy ta'tillarni berish majburiyati.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasining 14-bandida autstaffing shartnomasi bo'yicha qabul qiluvchi tashkilotda mehnat qilish uchun vaqtincha yuborilgan xodim bilan individual mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan autstafferning majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan ish haqi, mehnat ta'tili to'lovi va mehnatga vaqtincha qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin to'lovlar, mehnatda mayib bo'lish yoki kasb kasalligi bilan bog'liq kompensatsiya to'lovlari, qonunchilikka va mehnat shartnomasiga asosan xodimga tegishli bo'lgan boshqa to'lovlar bo'yicha qabul qiluvchi tashkilot subsidiar javobgarlikni o'z zimmasiga olishi ko'rsatildi.
Autstaffing xizmatlarini taqdim etish SXEMASI (Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova)			
31	... Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha autstafferga taklif (aferta) bilan murojaat qiladi.	1-bosqichning ikkinchi ustunidagi "aferta" so'zini "oferta" degan so'z bilan almashtirish kerak.	Qabul qilindi. 1-bosqichning ikkinchi ustunidagi "aferta" so'zini "oferta" degan so'z bilan almashtirildi.
32	Autstaffer shtatidagi xodimlar bilan qabul qiluvchi tashkilotda ishlarni autstaffing tartibida amalga oshirish uchun qo'shimcha mehnat shartnomalari (mehnat shartnomasiga ilova)ni tuzadi.	3-bosqichning uchinchi ustunidagi "Qo'shimcha mehnat shartnomalarini tuzadi" degan so'zlar "mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuvlari" degan so'zlar bilan almashtirish lozim.	Qabul qilindi. 3-bosqichning uchinchi ustunidagi "Qo'shimcha mehnat shartnomalarini tuzadi" degan so'zlar "mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuvlari" degan so'zlar bilan almashtirildi.
Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomning 22-bandiga muvofiq Qabul qiluvchiga autstaffer va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasiga Qo'shimchani namunaviy mazmuni (Autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga 3-ilova)			

33 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	Mehnat shartnomasiga Qo'shimchani namunaviy mazmuniga ish haqi miqdori bo'yicha band qo'shish lozim. Sarlavhadagi va butun matndagi "Autstaffing" so'zlarini "Ish beruvchi" so'zlari bilan almashirish lozim. Chunki ushbu shartnomaga ko'ra, xodim uchun autstaffing ish beruvchi hisoblanadi.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasining 14-bandida autstaffing shartnomasi bo'yicha qabul qiluvchi tashkilotda mehnat qilish uchun vaqtincha yuborilgan xodim bilan individual mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan autstaffingning majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan ish haqi, mehnat ta'tili to'lovi va mehnatga vaqtincha qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin to'lovlar, mehnatda mayib bo'lish yoki kasb kasalligi bilan bog'liq kompensatsiya to'lovlari, qonunchilikka va mehnat shartnomasiga asosan xodimga tegishli bo'lgan boshqa to'lovlar bo'yicha qabul qiluvchi tashkilot subsidiar javobgarlikni o'z zimmasiga olishi ko'rsatildi.
Xususiy bandlik va kadrlar agentliklari tomonidan autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM			
34 (Loyihaning butun matni bo'yicha)	"Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasiga asosan xususiy bandlik agentliklari faoliyatiga nomuvofiqligi sababli qaror va uning ilovalaridagi "xususiy bandlik agentligi" so'zlari chiqarib tashlansin.	Qabul qilindi. Loyihadan "Xususiy bandlik agentliklari" jumalari to'liq olib tashlandi.
Xorijda autstaffingdan foydalanish amaliyoti haqida MA'LUMOT			
35		Ushbu ma'lumotnomada qaror loyihasi mavzusiga aloqador bo'lmagan ayrim ma'lumotlar mavjud. 1. Jumladan, havolaning beshinchi bandida shunday deyilgan: "Sharqiy Yevropa mamlakatlarida agentlik ishi kechroq (asosan 2000 yillarda) paydo bo'lgan va uning ko'lami Markaziy Yevropaning rivojlangan mamlakatlariga (0,1-1,8%) nisbatan pastligicha qolmoqda. 2008-2010 yildan boshlab Sharqiy Evropa mamlakatlarida agentlik xodimlari soni sezilarli darajada oshdi va masalan Vengriyada hatto Yevropa darajasidan ham oshib ketdi." Ushbu xatboshini chiqarib tashlash kerak, chunki uning mazmuni qarorni qabul qiluvchi organni chalg'itadi, chunki "autstaffing" va "yollanma ish" tushunchalari bir xil emas.	Qabul qilindi. Xorijiy tajriba haqida ma'lumot Tushuntirish xatida ko'rsatilmoqda. Unda ushbu jumalalar chiqarilgan.
36		O'n oltinchi xatboshida quyidagilar keltirilgan: "Qozog'iston Respublikasining mehnat qonunchiligida autstaffing deganda bir yuridik shaxs xodimining boshqa yuridik shaxsning ixtiyorida, boshqaruvida va manfaatlarini ko'zlab "xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish" tushuniladi." Ushbu xatboshini olib tashlash kerak, chunki uning mazmuni tubdan noto'g'ri va qaror qabul qiluvchi organni chalg'itadi, chunki "xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish" asosiy ish joyida mehnat shartnomasini to'xtatib turishni va yangi ish beruvchi bilan mehnat shartnomasini tuzishni nazarda tutadi, bu holat autstaffing bilan bog'liq emas.	Qabul qilindi. Xorijiy tajriba haqida ma'lumot Tushuntirish xatida ko'rsatilmoqda. Unda ushbu jumalalar chiqarilgan.
O'zbekiston kasaba uyushmalar federatsiyasi (2-versiya bo'yicha)			
37	Qaror loyihasi 1-ilovasi 6-bandi 5-xatboshi: murakkab texnologik uskunalarni ekspluatatsiya qilish va ishga tushirish ishlari;	Nizomning 6-bandi 5-xatboshini "...texnologik uskunalarni" so'zlaridan keyin "montaj qilish," degan so'zlar bilan to'ldirish kerak.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasi 6-bandi 5-xatboshi "...texnologik uskunalarni" so'zlaridan keyin "montaj qilish," degan so'zlar bilan to'ldirildi.

38	<p>Qaror loyihasi 1-ilovasi 8-bandi: Autstaffing tartibi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati to'qqiz oydan oshmasligi kerak.</p>	<p>8-bandda autstaffing tartibi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati to'qqiz oydan oshmasligi kerakligi belgilanmoqda. Bunga oydinlik kiritish lozim, ya'ni bir kalendar yilidami yoki umuman ushbu qabul qiluvchi yuridik shaxsgami? Agarda to'qqiz oy tugagandan so'ng yana yangi autstaffing shartnomasi tuzib autstaffing xizmati ko'rsatilishi mumkin bo'lsa bu cheklovni mantiqi va maqsadi nimadan iborat bo'ladi?</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha ilovasi 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "Autstaffing shartnomasi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi kerak. Taraflarning kelishuvi va xodimning roziligi bilan ushbu muddat uzaytirilishi mumkin."</p>
39	<p>Qaror loyihasi 1-ilovasi 11-bandi a) kichik bandi: a) autstaffer tarafidan: qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, shuningdek ushbu mehnat shartnomalari shartlariga rioya qilish; autstaffing xizmatlarini qabul qiluvchilar ixtiyoriga tegishli malakaga va kerakli miqdordagi xodimlarni tayinlash; taqdim etilgan xodimlarning ish joylariga o'z vaqtida kelishini ta'minlash; taqdim etilgan xodimlarga ish haqining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, qonunchilikda belgilangan soliq va boshqa to'lovlarni amalga oshirish; taqdim etilgan xodimlarning davlat sug'urtasini amalga oshirish; xodimlarni qonunchilikda hamda ichki hujjatlarda (jamoat shartnoma, mehnat shartnoma va boshqa) nazarda tutilgan ijtimoiy va mehnat imtiyozlari bilan, shu jumladan mehnatda mayib bo'lish holati yoki sog'lig'iga boshqa zarar yetkazilgan taqdirda kompensasiyalar, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va boshqa to'lovlar bilan ta'minlash. Qaror loyihasi 1-ilovasi 11-bandi b) kichik bandi yettinchi xatboshi: xodimlarning mehnatini samarali boshqarish, shu jumladan mehnatni tashkil etish, ish vaqtini hisobga olish, mehnat me'yorlariga rioya qilish; Autstaffing shartnomasining taraflari qonunchilikda yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri belgilangan boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.</p>	<p>11-bandning "a" kichik bandini "taqdim etilgan xodimlarning qonunchilikda, jamoa kelishuvida, jamoa shartnomasida, mehnat shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlar dam olishlarini ta'minlash" degan navbatdagi xatboshi bilan to'ldirish kerak. Shu bandning "b" kichik bandi yettinchi xatboshini quyidagi tahrirda bayon etish "autstafferga xodimlarning mehnatidan qabul qiluvchi tashkilotda amalda foydalanishning muvofiqligi, shuningdek, mazkur xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligi normalariga rioya qilinmayotganligi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yaratish" taklif etiladi. Qabul qiluvchiga xodimlarni ish vaqtiga ham rioya qilish majburiyatini nazarda tutuvchi norma kiritilishi kerak.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha ilovasi 10-bandi a) kichik bandi quyidagi tahrirda sakkinci kichik xatboshi bilan to'ldirildi: "xodimlarni qonunchilikda hamda ichki hujjatlarda (jamoat shartnoma, mehnat shartnoma va boshqa) nazarda tutilgan ijtimoiy va mehnat imtiyozlari bilan, shu jumladan mehnatda mayib bo'lish holati yoki sog'lig'iga boshqa zarar yetkazilgan taqdirda kompensasiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlar bilan ta'minlash;" 10-band va b) kichik bandi ikkinchi xatboshiga "ish vaqti rejimiga rioya etish" so'zlari bilan to'ldirildi.</p>
40	<p>Qaror loyihasi 1-ilovasi 12-bandi birinchi va ikkinchi xatboshilari: Autstaffing xizmatlari uchun to'lov qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqdim etilgan xodimlarning ish haqini to'lash, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni ishlab chiqarish uchun autstafferning xarajatlarini qoplash;</p>	<p>12-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarini, "Autstaffing xizmatlari uchun to'lov autstafferga qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqdim etilgan xodimlarning ish haqini, ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni, nafaqalarni to'lash, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun autstafferning xarajatlarini qoplash" degan tahrirda bayon etish taklif etiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyiha ilovasi 11-bandi birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etildi: "Autstaffing xizmatlari uchun to'lov autstafferga qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqdim etilgan xodimlarning ish haqini, ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni, nafaqalarni to'lash, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun autstafferning xarajatlarini qoplash"</p>

41	Qaror loyihasi 1-ilovasi 14-bandi: Shartnomaga ilova sifatida yuborilgan xodimlar nomlari, ularning malakasini ko'rsatgan holda ish turlari ro'yxati va autstaffing shartnomasi shartlarini aniq ko'rsatadigan boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin.	14-band mazmunan tushunarsiz yozilgan.	Qabul qilindi. Loyiha ilova 13-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "Shartnomaga ilova sifatida yuborilgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ularning malakasini ko'rsatgan holda ish turlari ro'yxati va autstaffing shartnomasi shartlarini aniq ko'rsatadigan boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin."
O'zbekiston kasaba uyushmalar federatsiyasi (4-versiya bo'yicha)			
42	13. Autstaffing shartnomasida autstaffer tomonidan qabul qiluvchi tashkilot manfaatlarini uchun ishlarni bajarish uchun xodimlarni yuborish muddati, shuningdek, qabul qiluvchi tashkilotga yuborilgan ishchilarning mehnat huquqlariga rioya etilishi ustidan autstaffer tomonidan nazorat mexanizmlari belgilab qo'yilishi shart.	Qaror bilan tasdiqlanadigan Nizomning 13-bandidagi "...ishchilarning" so'zini "xodimlarning" deb o'zgartirishni va 20-bandni "...ichki mehnat" so'zlaridan keyin "tartibi" degan so'z bilan to'ldirishni taklif etamiz.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasining 12-bandidagi "...ishchilarning" so'zini "xodimlarning" deb o'zgartirildi va 20-band chiqarib tashlandi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (2-versiya bo'yicha)			
43	Qaror loyihasi 2-ilova 7-bandi: Akkreditatsiyadan o'tishga talabgor tashkilot quyidagi talablarga javob berishi kerak: ushbu Nizom va O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunchilik hujjatlarining talablarga qat'iy rioya qilishi; shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi; kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi; sug'urta tashkiloti bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kasbiy javobgarlikni sug'urtalash bo'yicha shartnomaga ega bo'lishi; tashkilot rahbarining shaxsga qarshi jinoyatlar yoki iqtisodiy sohadagi jinoyatlar uchun ilgari sudlanmaganlik.	Loyiha bilan, autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan yuridik shaxslarga ruxsat etilishi, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun akkreditatsiyadan o'tish talablari sifatida yuridik shaxslar shtatida oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng aholini ish bilan ta'minlash sohasida kamida 3 yil amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan hamda oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga hamda kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi lozimligi belgilanmoqda. "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuning 16-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar autstaffing xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Loyihada belgilangan talablar "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topmagan, shu bilan birga loyiha ishlab chiquvchisi tomonidan ushbu talablarni kiritish bo'yicha ma'lumot, tegishli xorijiy tajriba loyihaga ilova qilinmagan. Shu bilan birga, loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 martdagi PQ-5025-sonli qarori talablariga muvofiq tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazilmagan. Yuqoridagilarga asosan, mazkur loyihani tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazib, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasida belgilangan tegishli ma'lumotlar bilan birga qayta idoraviy kelishishga kiritish lozim.	Qabul qilindi. Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi. Ushbu loyihadagi autstaffing xizmatlari ko'rsatish uchun ko'rsatilgan boshqa talablar chiqarilib, qayta ko'rib chiqildi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (4-versiya bo'yicha)			

44	Loyiha bo'yicha.	<p>Qaror loyihasining 2-ilovasi 3-bobi bilan akkreditatsiya shartlariga rioya etilishini nazorat qilish tartiblari belgilanmoqda.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 9-moddasida, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mehnat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini tekshirishni qonunda belgilangan tartibda amalga oshirishi belgilangan.</p> <p>Amaldagi qonunchilikda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini amalga oshirishning alohida tartibi belgilanganligi hamda barcha tekshirishlar shu tartibga asosan amalga oshirilishi lozimligini inobatga olish lozim.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.07.2018-yildagi PF-5490-sonli Farmonining 5-bandiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunbuzarlik sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, tekshiruvni tashabbus qilishni nazarda tutuvchi "xavfni tahlil etish" tizimi natijalari asosida amalga oshirilishi belgilangan.</p> <p>Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishini nazarda tutish lozim.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p> <p>Loyihaning 1-ilovasiga quyidagi tahrirda 27-band bilan to'ldirildi:</p> <p>"Tadbirkorlik subyekti hisoblanuvchi autstaffing tashkilotlarini tekshirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi."</p>
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (4-versiya bo'yicha)			
45	To'ldirilmoqda.	4. Autstaffing xizmatlarini ko'rsatishda soliq solish masalalari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga asoslanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.	Qabul qilinmadi. Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza xulosasi.
46	4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A.Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.A.Musayev zimmasiga yuklansin.	5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A.Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.A.Musayev zimmasiga yuklansin.	Qabul qilindi. Qaror loyihasining 4-bandi 3-band sifatida ko'rsatildi.

47	Loyiha 2-ilovasi bo'yicha.	<p>Mazkur qaror loyihasining dastlabki versiyasida nazarda tutilgan Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun akkreditatsiyadan o'tishga talabgorlar uchun bir qator talablar (shtatida oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi, kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishini va boshq.) tegishli vazirlik va idoralarning taklif va e'tirozlaridan kelib chiqib chiqarib tashlangan bo'lsada, umuman olganda talabgorlarning akkreditatsiyadan o'tishi zarurligi talabi saqlab qolingan.</p> <p>Bunda, hech qanday talabarsiz talabgorlarni akkreditatsiyadan o'tkazish amaliyotini joriy etilishi akkreditatsiya orqali tartibga solish institutini joriy etishdan ko'zlangan maqsadga olib kelmaydi hamda amaliyotda faqatgina ortiqcha majburiy hamda samarasiz tartib-taomil bo'lishi mumkin deb talqin qilish mumkin.</p> <p>Shuningdek, autstaffing xizmatlari ish beruvchi va boshqa yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ko'rsatilishi belgilab qo'yilgan.</p> <p>O'z navbatida, taraflar o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilab berilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Ma'lumot uchun: Xorijiy amaliyot tahliliga ko'ra, bir qator davlatlarda, xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, hamda Qozog'istonda autstaffing xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishning alohida mexanizmlari (akkreditatsiyadan o'tkazish) joriy qilinmaganligini hamda ularning faoliyati umumiy shartnomaviy munosabatlar orqali tartibga solinishini ko'rish mumkin.</p> <p>Yuqoridagilardan kelib chiqib, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish o'zaro shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshirilishi mumkinligidan kelib chiqib, mazkur faoliyat bo'yicha talabgor yuridik shaxslar uchun akkreditatsiyalash tartib-taomili o'rniga boshqa muqobil soddalashtirilgan tartibga solish usullarini, xususan, autstaffing xizmatlarini ko'rsatish talabgorlar tomonidan vakolatli organi xabardor qilish yoki autstaffing shartnomalarini elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshirish masalasini ko'rib chiqish.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyiha 2-ilovasi va akkreditatsiya qilish chiqarib tashlandi.</p>
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish bo'yicha hisobot)			

48	<p>10. Autstaffing shartnomasi taraflarining asosiy majburiyatlari: a) autstaffer tarafidan: ... yuborilgan xodimlarga ish haqining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, qonunchilikda belgilangan soliq va boshqa to'lovlarni amalga oshirish; ... yuborilgan xodimlarning qonunchilikda, jamoa kelishuvida, jamoa shartnomasida, mehnat shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda dam olishini ta'minlash. b) Qabul qiluvchi tashkilot tarafidan: ... autstafferga xodimlarning mehnatini qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalda foydalanishning muvofiqligi, shuningdek, qabul qiluvchi tashkilotning ish bilan band bo'lgan xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligi normalariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Autstaffing shartnomasining taraflari qonunchilikda yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri belgilangan boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.</p>	<p>Quyidagi tahrirda bayon etish lozim: 10. Autstaffing shartnomasi taraflarining asosiy majburiyatlari: a) autstaffer tarafidan: ... yuborilgan xodimlarga ish haqining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash; ... yuborilgan xodimlarning qonunchilikda, jamoa kelishuvida, jamoa shartnomasida, mehnat shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda dam olishini ta'minlash. b) Qabul qiluvchi tashkilot tarafidan: ... autstafferga xodimlarning mehnatini qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalda foydalanishning muvofiqligi, shuningdek, qabul qiluvchi tashkilotning ish bilan band bo'lgan xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligi normalariga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Autstaffing shartnomasining taraflari qonunchilikda yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri belgilangan boshqa, shuningdek, autstaffing shartnomasi orqali xodim boshqa tashkilotga yuborilganda, uning yashash joyi bilan bog'liq xarajatlarni bartaraf etish hamda farzandlarining ta'lim (davlat umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim tashkiloti) bilan ta'minlanishi majburiyatlariga ega bo'lishi mumkin</p>	<p>Qabul qilindi. Ilovaning 10-bandida: "a" kichik bandi oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etildi: "yuborilgan xodimlarga ish haqining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash;" o' n ettinchi xatboshida quyidagi tahrirda bayon etildi: "Autstaffing shartnomasining taraflari qonunchilikda yoki shartnomada to'g'ridan-to'g'ri belgilangan boshqa, shuningdek autstaffing shartnomasi orqali xodim qabul qiluvchi tashkilotga yuborilganda, uning yashash joyi bilan bog'liq xarajatlarni bartaraf etish hamda farzandlarining ta'lim (davlat umumta'lim maktabi va maktabgacha ta'lim tashkiloti) bilan ta'minlanishi kabi majburiyatlariga ega bo'lishi mumkin."</p>
49	<p>11. Autstaffing xizmatlari uchun to'lov auctafferga qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuborilgan xodimlarning ish haqini, ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni, nafaqalarni to'lash, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish uchun autstafferning xarajatlarini qoplash;</p>	<p>Quyidagi tahrirda bayon etish lozim: 11. Autstaffing xizmatlari uchun to'lov auctafferga qabul qiluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuborilgan xodimlarning ish haqini, ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni, nafaqalarni to'lash uchun autstafferning xarajatlarini qoplash;</p>	<p>Qabul qilindi. Ilovaning 11-bandi ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etildi: "yuborilgan xodimlarning ish haqini, ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to'lovlarni, nafaqalarni to'lash uchun autstafferning xarajatlarini qoplash;"</p>
50	<p>21. Autstaffer tomonidan yuborilgan xodimlarning autstaffing tartibda ishlashiga oid ma'lumotlar (mehnat shartnomasi, qo'shimcha kelishuv, buyruq raqami va sanasi, qabul qiluvchi tashkilot nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati) "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladi.</p>	<p>Quyidagi tahrirda bayon etish lozim: 21. Autstaffer tomonidan yuborilgan xodimlarning autstaffing tartibda ishlashiga oid ma'lumotlar (mehnat shartnomasi, qo'shimcha kelishuv, buyruq raqami va sanasi, qabul qiluvchi tashkilot nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR), xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati) "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Ilovaning 11-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "21. Autstaffer tomonidan yuborilgan xodimlarning autstaffing tartibda ishlashiga oid ma'lumotlar (mehnat shartnomasi, qo'shimcha kelishuv, buyruq raqami va sanasi, qabul qiluvchi tashkilot nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR), xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddati) "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga kiritiladi."</p>

51	Loyihasining "Tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish bo'yicha hisobot" bo'yicha	<p>Mazkur qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligini to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-oktabrdagi 02/1-2298-son topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.</p> <p>Mazkur Qaror loyihasini muqaddam kelishish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritilgan versiyasi (ID-28507, V-4) yuzasidan tegishli taklif va e'tirozlar takdim etilgan. Bunda, qaror loyihasining dastlabki versiyasida nazarda tutilgan Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish uchun akkreditatsiyadan o'tkazish talabi, xususan, shtatida oliy ma'lumotli kamida bitta xodimga ega bo'lishi, kamida 100 million so'm ustav kapitaliga ega bo'lishi va boshqa talablar Iqtisodiyot va moliya vazirligining e'tirozlarini inobatga olgan holda loyihadan chiqarib tashlangan.</p> <p>Natijada, autstaffing shartnomaviy munosabatlari ishtirokchilari, asosan tadbirkorlik sub'ektlari bo'lgan yuridik shaxslar uchun ortiqcha hamda asoslantirilmagan ruxsat berish tartib-taomili hisoblangan akkreditatsiyadan o'tish hamda boshqa bir qator majburiy talablarning joriy etilishi oldi olindi.</p> <p>O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizomning 23-bandiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasi va TSTB bo'yicha Hisobot Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri jihatidan o'rganiladi.</p> <p>Shu bilan birga, yuqoridagi Nizomning ushbu bandida normativ-huquqiy hujjat loyihasining fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'sirini o'rganish tegishli sohada davlat siyosatini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan kelishish jarayonida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.</p> <p>Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, qaror loyihasining dastlabki versiyalaridagi tadbirkorlik sub'ektlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ortiqcha talab va majburiyatlar chiqarib tashlanganini inobatga olib, Qaror loyiha va uning TSTB hisobotini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'siri jihatidan o'rganish maqsadga muvofiq.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Qaror loyihasining dastlabki versiyalaridagi tadbirkorlik sub'ektlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ortiqcha talab va majburiyatlar chiqarib tashlanganini inobatga olib, Qaror loyiha va uning TSTB hisobotini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'siri jihatidan o'rganib chiqildi va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga salbiy ta'sir qiluvchi normalar mavjud emas.</p>
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi			

52	<p>3. Autstaffing xizmatlarini ko'rsatishda soliq solish masalalari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga asoslanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.</p>	<p>Loyiha bo'yicha. 3-bandda Autstaffing xizmatlarini ko'rsatishda soliq solish masalalari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga asoslanishi ma'lumot uchun qabul qilinishi nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning (keyingi o'rinlarda – Qonun) 3-moddasiga muvofiq normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir. Shuningdek, Qonun bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish Yagona uslubiyotining 22-bandida har bir modda va band, qoida tariqasida, bitta huquqiy normani o'z ichiga olishi hamda to'liq va tugallangan mazmunga ega bo'lishi kerakligi belgilangan. Shu bilan birga, Soliq kodeksining 1-moddasiga ko'ra, ushbu Kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Yuqoridagilarga asosan 3-band ma'lumot tariqasida bayon etilganligi hamda yuridik yuklama mavjud emasligi bois, loyihadan chiqarib tashlanishi zarur.</p>	<p>Qabul qilindi. Qaror loyihasi 3-bandi chiqarib tashlandi.</p>
53	<p>Loyihaga 1-ilova 2-bandning ikkinchi xatboshi autstaffing – ish beruvchi tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo'li bilan ko'rsatiladigan xizmatlar turidir;</p>	<p>Loyihaga 1-ilova bo'yicha. 2-bandning ikkinchi xatboshisida autstaffing tushunchasiga ta'rif berilib unga ko'ra, autstaffing – ish beruvchi tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo'li bilan ko'rsatiladigan xizmatlar turi ekanligi nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga ko'ra autstaffing ish beruvchi tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida, shuningdek jamoa kelishuvlarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo'li bilan ko'rsatiladigan xizmatlar turidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, autstaffing tushunchasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi asosida qayta ko'rib chiqilishi kerak.</p>	<p>Qabul qilindi. Loyihaga ilovasi 2-bandning ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etildi: "autstaffing – ish beruvchi tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida, shuningdek jamoa kelishuvlarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo'li bilan ko'rsatiladigan xizmatlar turidir;"</p>

54	<p>5. Belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan kadrlar agentliklari (HR, rekruting kompaniyalari va boshqalar) autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga haqli.</p>	<p>5-bandda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan kadrlar agentliklari (HR, rekruting kompaniyalari va boshqalar) autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga haqli ekanligi belgilanmoqda.</p> <p>Ta'kidlash lozimki, loyihani ishlab chiqish uchun asos bo'lgan "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar autstaffing xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega ekanligi belgilangan. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi shart.</p> <p>Shunga ko'ra, 5-banddagi faqat kadrlar agentliklari autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga haqli ekanligini belgilash masalasi chiqarib tashlanishi kerak.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyihaga ilovasi 5-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi:</p> <p>"Belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar autstaffing xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega."</p>
55	<p>6. Autstaffing tartibida xodimlar qabul qiluvchi tashkilotda ishlab chiqarishni yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini vaqtincha kengaytirish bilan bog'liq ishlarni bajarishi mumkin, jumladan: IT-texnologiyalarni joriy etish sohasidagi faoliyat; ish yuritish, hujjatlar aylanishini tashkil etish va amalga oshirish; buxgalteriya va moliyaviy ishlar, shu jumladan ichki moliyaviy audit; murakkab texnologik uskunalarni montaj qilish, ekspluatatsiya qilish va ishga tushirish ishlari; marketing va sotsiologik tadqiqotlar; qurilish ishlari; klining xizmatlari; yuridik xizmat (qonunchilikka muvofiq); mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari.</p>	<p>6-bandda autstaffing tartibida xodimlar qabul qiluvchi tashkilotda quyidagi ishlarni bajarishi mumkinligi belgilanmoqda: IT-texnologiyalarni joriy etish sohasidagi faoliyat; ish yuritish, hujjatlar aylanishini tashkil etish va amalga oshirish; buxgalteriya va moliyaviy ishlar, shu jumladan ichki moliyaviy audit; murakkab texnologik uskunalarni montaj qilish, ekspluatatsiya qilish va ishga tushirish ishlari; marketing va sotsiologik tadqiqotlar; qurilish ishlari; klining xizmatlari; yuridik xizmat (qonunchilikka muvofiq); mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari.</p> <p>Shu bilan birga, 7-bandda autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga ishlarni amalga oshirish maqsadida yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan holatlar ham aniq belgilab berilmoqda.</p> <p>Ta'kidlash lozimki, loyihani ishlab chiqish uchun asos bo'lgan "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasida autstaffing xizmatlari ko'rsatish tartibi va autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlarining ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan.</p> <p>Shunga ko'ra, autstaffing tartibida xodimlar qabul qiluvchi tashkilotda bajarishi mumkin bo'lgan ishlarning qat'iy ro'yxati belgilab berilishi masalasi huquqiy va amaliy jihatdan asoslantirilmagan va shu bois ushbu band loyihadan chiqarib tashlanishi lozim.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyiha ilovasi 6-bandi chiqarib tashlandi.</p>

56	10. Autstaffing shartnomasining predmeti qabul qiluvchi tashkilotga autstaffer tomonidan vaqtinchalik asosda kasbiy malaka talablariga muvofiq zarur bo'lgan miqdorda xodimlar taqdim etilishi hisoblanadi.	10-bandda autstaffing shartnomasining predmeti etib qabul qiluvchi tashkilotga autstaffer tomonidan vaqtinchalik asosda kasbiy malaka talablariga muvofiq zarur bo'lgan miqdorda xodimlar taqdim etilishi nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, loyihada ushbu xizmatni ko'rsatish uchun to'lov amalga oshirilishi nazarda tutilmagan. Shunga ko'ra, 10-bandda autstaffing shartnomasiga ko'ra ko'rsatiladigan xizmatlar haq evaziga amalga oshirilishi aniq belgilanishi lozim.	Qabul qilindi. Loyihaga ilovasi 10-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "10. Autstaffing shartnomasining predmeti qabul qiluvchi tashkilotga autstaffer tomonidan vaqtinchalik asosda kasbiy malaka talablariga muvofiq zarur bo'lgan miqdorda xodimlar taqdim etilishi hisoblanadi va ko'rsatiladigan xizmatlar haq evaziga amalga oshirilishi aniq belgilanadi."
57	4-bob to'liq matni mazmuni bo'yicha	4-bob bilan autstaffing shartnomasi bo'yicha autstaffer tomonidan yuborilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 147-moddasida xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish tartibi belgilangan. Bundan tashqari, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisini boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborishning o'ziga xos jihatlari belgilangan. Biroq, 4-bobda belgilanishi nazarda tutilayotgan tartib yuqoridagi moddalar talablariga zid hisoblanadi. Shunga ko'ra, 4-bob yuqoridagi qonun hujjatlari doirasida to'liq qayta ko'rib chiqilishi lozim.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasi 4-bobi qonun hujjatlari doirasida to'liq qayta ko'rib chiqildi va Mehnat kodeksining 147-moddasi hamda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasiga muvofiq qabul qilindi.
58	33. Mazkur Nizomning bajarilishi uchun javobgarlik bevosita autstafferning rahbarlariga va qabul qiluvchi tashkilot rahbarlariga yuklanadi.	Qonunchilik texnikasi va amaliyotidan kelib chiqib, loyihaga ilovaning 33-bandi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq: "Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar".	Qabul qilindi. Loyihaga ilovaning 33-bandi quyidagi tahrirda bayon etildi: "27. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar."
59	Loyiha matni bo'yicha	6.2. Loyihaning matni "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning Yagona uslubiyoti 2 va 3-bandlariga asosan qayta ko'rib chiqilishi kerak.	Qabul qilindi. Loyihaning matni "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning Yagona uslubiyoti 2 va 3-bandlariga asosan qayta ko'rib chiqildi.

60	Loyiha matni bo'yicha	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qaroriga asosan tadbirkorlik faoliyatiga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tartibga solish ta'sirini baholashdan (keyingi o'rinlarda – TSTB) o'tkazilishi belgilangan.</p> <p>Loyihaning 1-bandi, shu jumladan loyiha bilan tasdiqlanayotgan nizomning 7-bandida autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan holatlar belgilanmoqda. Xususan:</p> <p>qonunchilikka muvofiq yuqori xavfli obyektlar (uskunalar) sifatida tasniflangan obyektlar va uskunalar bo'yicha, shu jumladan, portlash-yong'in xavfi bor, toksik, agressiv yoki radioaktiv xavfli asbob-uskunalar bo'yicha ishlarni bajarish;</p> <p>qabul qiluvchi tomonidan bankrotlik taomillari amalga oshirish ishlari bajarilganda, ish joylarini saqlab qolish uchun to'liq bo'lmagan ish vaqtini kiritganida, shuningdek, xodimlarni ommaviy ravishda ozod qilish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda ishlarni bajarish;</p> <p>mehnat huquqlari buzilganligi sababli qonunda belgilangan tartibda ishni to'xtatgan xodimlar almashtirilganda.</p> <p>Shuningdek, loyihaga ilovaning 6-bandida autstaffing tartibida xodimlar qabul qiluvchi tashkilotda ishlab chiqarishni yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini vaqtincha kengaytirish bilan bog'liq bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarning turlari ko'rsatib o'tilmoqda.</p> <p>Loyihada belgilanayotgan mazkur normalar bevosita jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi sababli Loyiha TSTBdan o'tkazilishi hamda TSTB hisoboti to'ldirilishi zarur.</p> <p>Jumladan, TSTB hisobotida autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlarining ro'yxati, shuningdek, vaqtincha kengaytirish bilan bog'liq bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarning turlari baholashdan o'tkazilishi, ularning ehtimoliy oqibatlari baholanishi hamda uni qabul qilish zarurati asoslantirilishi kerak.</p> <p>Shu bois, Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomning 29-bandiga muvofiq, TSTBdan o'tkazilishi, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirilishi hamda TSTB bo'yicha hisobot yuzasidan vakolatli organlarning xulosalari olinishi lozim.</p>	<p>Qabul qilindi.</p> <p>Loyiha ilovasi 6-bandi chiqarib tashlandi. Loyiha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomning 29-bandiga muvofiq, TSTBdan o'tkazildi, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirildi hamda TSTB bo'yicha hisobot yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi xulosalari olindi.</p>
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi			

61	<p>Qaror loyihasi nomi "Autstaffing xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Muqaddimasi O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi ijrosini ta'minlash va aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:</p>	<p>5.1. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning yagona uslubiyotiga muvofiq, har bir ishlab chiqiladigan loyihaning nomi qisqa, tushunarli ifodalinishi va uning asosiy huquqiy tartibga solish predmetini aks ettirilishi zarur. Shuningdek, qonunosti hujjati loyihasining ilovani tasdiqlash nazarda tutilayotgan tarkibiy birligida unda belgilanayotgan normalarning mohiyati qisqacha bayon etiladi. Shu bois, yuqorida keltirilgan topshiriq hamda qonunchilik amaliyotidan kelib chiqib: – loyihaning nomini mazkur loyihani ishlab chiqishning maqsadini belgilab beruvchi jumla bilan to'ldirish; – loyihaning muqaddimasi uni ishlab chiqishning asosi, maqsadi va zaruriyati, shuningdek 2-banda ilova bilan belgilanayotgan normalarning mohiyati qisqacha bayon etilishi lozim.</p>	<p>Qabul qilindi. Qaror loyihasi nomi quyidagi tahrirda nomlandi: "Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi tasdiqlash to'g'risida". Qaror loyihasining muqaddimasi quyidagi tahrirda bayon etildi: "Aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytirish, tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida va O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:"</p>
62	<p>Qaror loyihasi 1-bandi 1. Belgilansinki, autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadida yuborishiga yo'l qo'yilmaydi: qonunchilikka muvofiq yuqori xavfli obyektlar (uskunalar) sifatida tasniflangan obyektlar va uskunalar bo'yicha, shu jumladan, portlash-yong'in xavfi bor, toksik, agressiv yoki radioaktiv xavfli asbob-uskunalar bo'yicha ishlarni bajarish; qabul qiluvchi tomonidan bankrotlik taomillari amalga oshirish ishlari bajarilganda, ish joylarini saqlab qolish uchun to'liq bo'lmagan ish vaqtini kiritganida, shuningdek, xodimlarni ommaviy ravishda ozod qilish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda ishlarni bajarish; mehnat huquqlari buzilganligi sababli qonunda belgilangan tartibda ishni to'xtatgan xodimlar almashirilganda.</p>	<p>5.2. 1-banda autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar ro'yxatini belgilash nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasida autstaffing xizmatlari ko'rsatish tartibi va autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan. Ya'ni, bunda "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgani kabi autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlari tasdiqlanmasdan, balki bunda ishlarni amalga oshirish maqsadi bo'yicha autstaffing cheklanishi belgilanmoqda. O'z navbatida, qonunchilik texnikasi va amaliyotiga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining qaror qismida loyihaning tartibga solish predmeti va huquqiy mexanizmlari bayon etilishi lozim. Bundan tashqari, loyihaga 1-ilovaning 3-bandida autstaffer tomonidan o'z xodimlarini ularning mehnat funksiyalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bajarish uchun yuborilishi bilan bog'liq autstaffing xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmasligi belgilanib, bir xil munosabatlarni tartibga soluvchi normalar tarqoq holda belgilanmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 1-band chiqarib tashlangan holda autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlari alohida ilovada tasdiqlanishi talab etiladi.</p>	<p>Qabul qilindi. Qaror loyihasidan birinchi band chiqarib tashlandi va autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlari ilovada tasdiqlanmoqda. Loyiha ilovaning 6-bandida autstaffing xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha bajarilishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlar turlari belgilandi.</p>

63	Loyiha ilovasining 10-band "a" kichik bandi ikkinchi xatboshi qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, shuningdek ushbu mehnat shartnomalari shartlariga rioya qilish;	5.3. 2-bandda autstaffing xizmati ish beruvchi tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga ushbu xodimlar tomonidan ish beruvchi va uning xodimi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalarida, shuningdek jamoa kelishuvlarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarish uchun vaqtinchalik yuborish yo'li bilan ko'rsatiladigan xizmatlar turi ekanligi nazarda tutilmoqda. Ta'kidlash lozimki, "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga ko'ra, autstaffing shartnomasi bo'yicha ish beruvchi o'z xodimlarini ularning roziligi bilan boshqa yuridik shaxslarga vaqtincha yuborishi mumkinligi belgilangan. Biroq, loyihada autstaffing shartnomasi bo'yicha ish beruvchi boshqa yuridik shaxslarga o'z xodimlarini yuborishda xodimlarning roziligini olishi mexanizmlari (xususan ushbu rozilik qanday rasmiylashtirilishi, autstaffing shartnomasi muddati tugamasdan turib xodim noroziligini bildirganda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar) belgilab berilmagan bo'lib, mazkur masala huquqiy jihatdan tartibga solinmasdan qolmoqda. Yuqoridagilardan kelib chi qib, loyihada ish beruvchi o'z xodimlarini boshqa yuridik shaxslarga vaqtincha yuborishda ularning roziligi olishning mexanizmlari belgilanishi lozim.	Qabul qilindi. Loyiha ilovasining 10-band "a" kichik bandi ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etildi: "xodimlar roziligi bilan bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish, shuningdek mehnat qonunchiligi hamda ushbu mehnat shartnomalari shartlariga rioya qilish;"
64	Loyiha yuzasidan tartibga solish ta'sirini baholash hisoboti bo'yicha.	Loyiha bilan yuridik shaxslarni boshqa yuridik shaxslarga autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi belgilanmoqda. Loyiha yuzasidan tartibga solish ta'sirini baholash hisoboti (keyingi o'rinlarda – TSTB hisoboti) to'ldirilgan. Biroq, TSTB hisoboti to'ldirilishida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash uslubiyoti (ro'yxat raqami 3292, 2021-yil 31-mart) talablariga to'liq rioya etilmagan. Xususan, loyiha bilan belgilanayotgan autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlarning turlari muqobil usul, shu jumladan amaldagi holat bilan birga tahlil qilinmagan hamda ularning afzaliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilmagan. Shuningdek, autstaffing shartnomasi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddatining bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi baholashdan o'tkazilmagan hamda asoslantirilmagan.	Qabul qilindi. Loyiha yuzasidan tartibga solish ta'sirini baholash hisobotining 4-bob. Tartibga solishning muqobil usullarining tavsifida autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborishiga yo'l qo'yilmaydigan ishlarning turlari muqobil usul, shu jumladan amaldagi holat bilan birga tahlil qilindi va ularning afzaliklari va kamchiliklari ko'rib chiqildi. Autstaffing shartnomasi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddatining bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi baholashdan o'tkazildi hamda asoslantirildi.

Vazir



Musayev B. A.

,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Autstaffing xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror loyihasining tartibga solish ta‘sirini baholashdan o‘tkazish bo‘yicha

HISOBOT

1-bob. Umumiy ma‘lumotlar

1.	Ishlab chiquvchi va hamijrochi(lar)ning nomi	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
2.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasining (bundan buyon matnda loyiha deb yuritiladi) turi va nomi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Autstaffing xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror loyihasi
3.	Kutilayotgan kuchga kirish sanasi	2023-yil iyul

2-bob. Loyiha bilan hal etilishi ko‘zda tutilgan muammolarning tahlili

4.	Muammo vujudga kelgan soha va uning huquqiy tartibga solinganlik holati va huquqni qo‘llash amaliyoti	Qonunchilikda yuridik shaxslar boshqa yuridik shaxslarga autstafing xizmatlarini ko‘rsatish tartibga solinmagan, lekin amaliyotda norasmiy ravishda ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar mavjud, faqat boshqa shakllarda faoliyat olib bormoqda. Ushbu faoliyat bilan qonuniy tartibda shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yuridik shaxslar uchun huquqiy asos yo‘q.
5.	Loyiha bilan hal etilishi ko‘zda tutilgan muammolarning tavsifi (shu jumladan muammo ta‘sir ko‘rsatayotgan ob‘ektlar va/yoki sub‘ektlar tahlili)	Fuqarolar uchun: norasmiy bandlikni kamaytiradi; fuqarolarning mehnat huquqlari buzilishi oldi olinadi; yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Tashkilotlar uchun: tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi; budjetini samarali taqsimlashga imkon beradi; xodimlar oldida yuridik javobgarligi bo‘lmaydi; ishga xodimlarni yollash bilan bog‘liq xarajatlardan, hisob-kitoblar, ish haqi to‘lovidan amalga oshirilmaydi; xodimlarni ishdan bo‘shatish bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartiradi va chiqarib tashlaydi; rasmiylashtirmasdan yangi xodimlarni sinovdan o‘tkazadi; xizmat safarlarini rasmiylashtirish va ijtimoiy imtiyozlar taqdim etish bilan bog‘liq ma‘muriy ishlar hajmini kamaytiradi; o‘quv xarajatlari va kompensatsiya paketlarini optimallashtiradi.

6.	Muammoning sabablari va uning mavjudligi tufayli kelib chiqqan (kelib chiqishi mumkin bo'lgan) salbiy oqibatlar to'g'risida ma'lumot	Boshqa yuridik shaxslarda yuborilgan xodimlar norasmiy ishlaganligi uchun ish staji hisoblanmaydi, daromat solig'i (ijtimoiy soliq) to'lanmaydi, mehnat huquqlari buzilsa, homiya qilish va tiklash imkoniyati kamayadi. Bundan tashqari, ushbu faoliyat tartibga solinmaganligi tadbirkorlar soni kam.
7.	Davlat aralashuvining zaruriyati	Autstaffing yuridik shaxslarni boshqa yuridik shaxslarga autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibini qonunchilik bilan tartibga solinmasa, mavjud muammolarni bartaraf eib bo'lmaydi. Ushbu tartib joriy etilsa, tegishli nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

3-bob. Loyiha orqali erishilishi lozim bo'lgan maqsadlar

8.	Umumiy maqsad	Norasmiy bandlikni kamaytiradi hamda aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytiradi va tadbirkorlik subyektlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.
	Maxsus maqsad	Mavjud muammolarni bartaraf etish, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun autstaffing xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanishi uchun huquqiy asos yaratish.
	Tezkor maqsad	Autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibga solinadi.

* Ma'lumotlar manbalari: O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi.

4-bob. Tartibga solishning muqobil usullarining tavsifi

9.	Muammoni hal qilishda tartibga solishning muqobil usullari tavsifi (usullarning har biri muammoni qanday hal qilish mumkinligini ko'rsatgan holda): qonunchilikka muvofiq yuqori xavfli obyektlar (uskunalar) sifatida tasniflangan obyektlar va uskunalar bo'yicha, shu jumladan, portlash-yong'in xavfi bor, toksik, agressiv yoki radioaktiv xavfli asbob-uskunalar bo'yicha ishlarni bajarish; qabul qiluvchi tomonidan bankrotlik taomillari amalga oshirish ishlari bajarilganda, ish joylarini saqlab qolish uchun to'liq bo'lmagan ish vaqtini kiritganida, shuningdek, xodimlarni ommaviy ravishda ozod qilish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda ishlarni bajarish; mehnat huquqlari buzilganligi sababli qonunda belgilangan tartibda ishni to'xtatgan xodimlar almashtirilganda. Autstaffing shartnomasi orqali xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga yuborish muddatining bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi.	
Usul nomi	Afzalliklari	Kamchiliklari
1-usul. Cheklovlar va talablarni белгиллаш	Fuqarolarning mehnat huquqlari buzilishi kamayadi, oldi olinadi. Nazorat qilishga asoslar va imkoniyatlar ko'payadi.	Talablar va sheklovlar ko'pligi ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar sonini kamaytiradi, yangi ish o'rinlari ko'paytirish imkoni kamayadi.

2-usul. Cheklovlarni bekor qilish	Cheklovlar mavjud bo'lmasa, tadbirkorlar soni yana ko'payishi, yangi ish o'rinlari yanada ko'payishi mumkin.	Autstaffing xizmatlarini ko'rsatishda cheklovlar mavjud bo'lmasa, ayrim ishlarda fuqarolarning mehnat huquqlari buzilishi, sog'ligi va hayotiga ziyon yetishi mumkin:
---	--	---

5-bob. Tartibga solishning muqobil usullarining foyda va xarajatlar tahlili to'g'risida ma'lumot

10.	1-usul qabul qilinishi natijasida kelishi mumkin bo'lgan foyda va xarajatlar tavsifi:		
Xarajat va foyda turi		Miqdoriy ko'rsatkichlar	
		Bir martalik	Davriy
Bevosita xarajatlar			
Xarajat turi - xizmatga haq to'lash	ish beruvchi – autstafer va xodim	-	Faoliyati natijasi bo'yicha har oyda
Bilvosita xarajatlar			
Xarajat turi -	-	-	-
Ma'muriy sarf-xarajatlar			
Xarajat turi: Autstafer xodimga ish haqi to'laydi. Qabul qilibchi autstafferga xizmat haqi to'laydi	ish beruvchi – autstafer va xodim, qabul qiluvchi	-	Faoliyati natijasi bo'yicha har oyda
Bevosita foyda			
Foyda- xizmat haqi	ish beruvchi – autstafer va xodim		
Bilvosita foyda			
Foyda-	-	-	-
Jami foyda va xarajatlar			
Xizmat haqi		-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Xizmatga haq to'lash		-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Sof joriy qiymat			
Sof joriy qiymat		-	Faoliyati natijasi bo'yicha

2-usul qabul qilinishi natijasida kelishi mumkin bo'lgan foyda va xarajatlar tavsifi:			
Xarajat va foyda turi		Miqdoriy ko'rsatkichlar	
		Bir martalik	Davriy
Bevosita xarajatlar			
Xarajat turi - xizmatga haq to'lash	ish beruvchi – autstafer va xodim	-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Bilvosita xarajatlar			
Xarajat turi -	-	-	-
Ma'muriy sarf-xarajatlar			
Xarajat turi - xizmatga haq to'lash	ish beruvchi – autstafer va xodim	-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Bevosita foyda			

Foyda - xizmat haqi	ish beruvchi – autstafer va xodim		
Bilvosita foyda			
Foyda-	-	-	-
Jami foyda va xarajatlar			
Xizmat haqi		-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Xizmatga haq to'lash		-	Faoliyati natijasi bo'yicha
Sof joriy qiymat			
Sof joriy qiymat		-	Faoliyati natijasi bo'yicha

*Ma'lumotlar manbalari: O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi.

11.	Foyda va xarajatlar tahlili natijasi bo'yicha tanlangan usulni asoslash
Foyda va xarajatlar tahlili natijasi bo'yicha 1-usul, ya'ni faqat ruxsat berish (cheklovlar va talablarni kamaytirish) tanlandi, chunki cheklovlar va talablarni ko'pligi ushbu faoliyat bilan shug'ullunuvchilar uchun qo'shimcha majburiyatlar vujudga keladi hamda mazkur faoliyatni rivojlanishiga hamda ko'zlangan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladi.	

12.	Tartibga solinadigan manfaatdor tomonlar tahlili	
Tadbirkorlik sub'ektlari	Soni	Ulushi (foizda)
Mikrofirmalar		
Kichik korxonalar	523 556	
Yirik korxonalar		
...		
Jami		

*Ma'lumotlar manbalari: stat.uz sayti.

6-bob. Loyihaning raqobat muhitiga ta'siri

13.	Loyihaning raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan oqibatlar (salbiy/ijobiy) tavsifi:	Loyihada biror bir tadbirkorlik sub'ektiga alohida imtiyoz va preferensiyalar berilmagan yoki cheklovlar mavjud emas. Loyihada autstaffer xodimlarni qabul qiluvchi tashkilotga quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadida yuborishiga yo'l qo'yilmasligi belgilanmoqda: qonunchilikka muvofiq yuqori xavfli ob'ektlar (uskunalar) sifatida tasniflangan ob'ektlar va uskunalar bo'yicha, shu jumladan, portlash-yong'in xavfi bor, toksik, agressiv yoki radioaktiv xavfli asbob-uskunalar bo'yicha ishlarni bajarish; qabul qiluvchi tomonidan bankrotlik taomillari amalga oshirish ishlari bajarilganda, ish joylarini saqlab qolish uchun to'liq bo'lmagan ish vaqtini kiritganida, shuningdek, xodimlarni ommaviy ravishda ozod qilish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda ishlarni bajarish; mehnat huquqlari buzilganligi sababli qonunda belgilangan tartibda ishni to'xtatgan xodimlar almashtirilganda. Qonunchilikda xodimlarni autstaffing xizmatlarini amalga oshirish tartibida yo'naltirish bo'yicha boshqa cheklovlar ham ko'zda tutilishi mumkin. Mazkur cheklovlar xodimlarning mehnat huquqlarini buzilishini oldini olish maqsadida kiritilgan.
	Tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (etkazib beruvchilar) doirasi va sonini cheklashi (cheklamasligi)	Cheklanmagan.
	Etkazib beruvchilarning o'zaro raqobatlashish imkoniyatini chegaralashi (chegaralamasligi)	Cheklanmagan.
	Etkazib beruvchilarning bozor munosabatlarida o'zaro raqobatlashishga qiziqishini pasaytirishi (pasaytirmasligi)	Pasaytirilmagan.
	Iste'molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkonining chegaralanishi (chegaralanmasligi)	Cheklanmagan.

7-bob. Loyiha qabul qilinishidan kutilayotgan natija

14.	Loyiha qabul qilinishi natijasida erishiladigan maqsadlar va ko'rsatkichlar:		
Erishiladigan maqsadlar	Indikativ ko'rsatkichlar	Indikativ ko'rsatkichlarning o'lchov birligi	Indikativ ko'rsatkichlarni hisoblash usullari
Norasmiy bandlikni kamaytish, aholini ish bilan ta'minlashning progressiv shakllarini rivojlantirish orqali bandlikni yanada kengaytish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun imkoniyatlar yaratish.	-	-	-
	-	-	-

8-bob. Tartibga solish maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar

15.	Tartibga solish maqsadlariga erishish uchun davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy, texnik, uslubiy va boshqa chora-tadbirlar:			
Chora-tadbirlar nomi	Mas'ul ijrochi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish hajmi va manbasi	Amalga oshirish mexanizmi va kutilayotgan natija
Autsaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi joriy etilganligi haqida targ'ibot ishlarini amalga oshirish	Bandlik vazirligi	Doimiy	Ehtiyojga ko'ra Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan	Loyiha qabul qilingandan so'ng vazirlik rasmiy saytida e'lon qilish joylarda tadbirkorlar orasida seminarlar tashkil etish
Autsaffing xizmatlarini ko'rsatishda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha tadbirkorlarga metodik yordam ko'rsatish	Bandlik vazirligi	Doimiy	Ehtiyojga ko'ra Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan	Loyiha qabul qilingandan so'ng metodik qo'llanma ishlab chiqish va vazirlik rasmiy saytida e'lon qilish joylarda tadbirkorlarga tarqash

9-bob. Loyihaning jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot

16.	Loyihani jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish natijalari to'g'risida ma'lumot:		
Loyihani muhokama qilishning identifikatsiya raqami	ID 77426		
Loyiha muhokamaga qo'yilgan davr	Boshlanishi	Tugashi	
	2023-yil 17-mart	2023-yil 1-aprel	
Kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish natijasi			
Jami takliflar soni	Qabul qilingan	Rad etilgan	
5	5	0	

10-bob. Taklif etilayotgan tartibga solishning asoslanganligini baholashga imkon beradigan boshqa ma'lumotlar

17.	Xalqaro tajriba
Qaror loyihasini ishlab chiqishda xalqaro tajriba chuqur o'rganildi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, AQSh va Kanada kabi mamlakatlarda, shuningdek, ba'zi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida autstaffing taxminan 1970-yillardan boshlab mavjud bo'lib, shu vaqt mobaynida kadrlar bilan ishlashning bu texnologiyasi nafaqat takomillashibgina qolmay, balki o'z samaradorligini ham isbotladi.	

Ma'lumotlar manbalari: Qaror loyihasi O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-oktabrdagi 02/1-2298-sonli topshirig'i.

18. Mazkur hisobotning to'g'riligi va keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tasdiqlayman.

Ilovalar: Tahliliy ma'lumotlar.

Vazir



Musayev B. A.

,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror loyihasining korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo‘yicha

ChEKLIST

Yo‘nalishlar	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Javob			Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omil mavjud bo‘lgan norma va uning asoslanishi
Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor		yo‘q +	
	noaniq va asossiz havolalarning qo‘llanilishi	bor		yo‘q +	
	normativ-huquqiy hujjatlarda qarama-qarshiliklarning mavjudligi	bor		yo‘q +	
Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	diskresion vakolatlarning kengligi	bor		yo‘q +	
	vakolatlarning noaniqligi	bor		yo‘q +	
	davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi	bor		yo‘q +	
	davlat organi tomonidan o‘z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi	bor		yo‘q +	
	vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo‘lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor		yo‘q +	
	o‘z vaqtida tartibga solinmaslik	bor		yo‘q +	
	manfaatlar to‘qnashuvi	bor		yo‘q +	
	afzalliklarning asossiz ravishda belgilanishi	bor		yo‘q +	
	normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish	bor		yo‘q +	
	huquq va majburiyatlarning nomutanosibliigi	bor		yo‘q +	

Ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi	bor	yo'q	+	
	belgilangan qoidalaridagi istisnolarning asossiz ravishda qo'llanilishi	bor	yo'q	+	
	ortiqcha va asossiz talablar belgilanishi	bor	yo'q	+	
	vaqt chegaralarining noaniqligi	bor	yo'q	+	
	to'lovlar miqdorlarining noaniqligi	bor	yo'q	+	
	sanksiyalarning nomutanosibliigi	bor	yo'q	+	
	davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjetdan tashqari mablag'lar sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	solliqlar va yig'implarni hisoblash hamda undirish tartib-taomillarining murakkabligi yoki noaniqligi	bor	yo'q	+	
	davlat korxonalarini hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor	yo'q	+	
	huquq va imtiyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion) tartib-taomillaridan bo'yin tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi	bor	yo'q	+	
tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi	bor	yo'q	+		

Nazorat-tekshirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	tekshirish va taftish o‘tkazish tartibining mavjud emasligi	bor	yo‘q	+	
	shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	yo‘q	+	
	shaffoflikni va jamoatchilik nazoratini ta‘minlashdagi bo‘shliqlar	bor	yo‘q	+	
	moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo‘llash hamda undirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi	bor	yo‘q	+	
	davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi	bor	yo‘q	+	

Vazir



Musayev B. A.

,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasini ximoya qilish bo‘yicha VAKILLAR GURUHI TARKIBI

T/r	Mutaxassis F.I.Sh.		Ish joyi va lavozimi
1.	Turdiboeva Ra‘no Eshovna	–	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining o‘rinbosari (guruh rahbari)
2.	Qarshiev Laziz Nuritdinovich	–	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi boshqarma boshlig‘i
3.	Abdukarimov Abdusamad Abdusalom o‘g‘li	–	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi yuridik ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i
4.	Allanazarov Davron	–	Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i
5.	Premkulov Xamidulla	–	Kasaba uyushmalari federatsiyasi yuridik bo‘lim boshlig‘i

Vazir



Musayev B. A.